

Kamolova Muhlisa Alisher qizi,
Magistrant, Turkiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi
Kommunikatsiya bo‘limi tarjimoni

UDK 327.82:316.77:004.77

MADANIY DIPLOMATIYANING YANGI MEDIAGA TA’SIRI

Annotatsiya:

Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat va globallashuv sharoitida madaniy diplomatiya hamda yangi media o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va integratsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Maqolada an’anaviy diplomatiya shakllarining raqamli platformalarga ko‘chishi va bu jarayonda milliy madaniyat, urf-odat hamda qadriyatlarning yangi media kontentini boyitishdagi o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, "yumshoq kuch" (Soft Power) konsepsiyasi doirasida yangi medianing mamlakatning ijobiy imijini shakllantirish, madaniyatlararo muloqotni tezlashtirish hamda milliy brendingni rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: madaniy diplomatiya, yangi media, yumshoq kuch (Soft Power), raqamli diplomatiya, milliy kontent, ijtimoiy tarmoqlar, milliy brending, madaniyatlararo muloqot.

Аннотация

В данной статье анализируются процессы взаимодействия и интеграции между культурной дипломатией и новыми медиа в условиях информационного общества и глобализации. В работе освещается переход традиционных форм дипломатии на цифровые платформы, а также роль национальной культуры, традиций и ценностей в обогащении контента новых медиа. Кроме того, в рамках концепции «мягкой силы» (Soft Power)

проанализирована роль новых медиа в формировании позитивного имиджа страны, ускорении межкультурного диалога и развитии национального брендинга.

Ключевые слова: культурная дипломатия, новые медиа, мягкая сила (Soft Power), цифровая дипломатия, национальный контент, социальные сети, национальный брендинг, межкультурный диалог.

Abstract

This article analyzes the processes of interaction and integration between cultural diplomacy and new media in the context of the information society and globalization. The study highlights the transition of traditional forms of diplomacy to digital platforms and the role of national culture, traditions, and values in enriching new media content. Furthermore, within the framework of the "Soft Power" concept, it examines the role of new media in shaping a positive image of a country, accelerating intercultural dialogue, and developing national branding.

Keywords: cultural diplomacy, new media, soft power, digital diplomacy, national content, social networks, national branding, intercultural dialogue.

Bugungi global axborot makonida mamlakatlarning xalqaro obro‘-e’tibori va "yumshoq kuchi" ularning madaniy diplomatiyasiga bevosita bog‘liq. An’anaviy diplomatiya rasmiy elchixonalar va davlatlararo uchrashuvlar bilan cheklangan bo‘lsa, zamonaviy davrda bu jarayon yangi mediaga ko‘chdi[1]. Madaniy diplomatiya yangi medianing shunchaki mazmuni bo‘lib qolmay, uning rivojlanish yo‘nalishlari va sifatini belgilab bermoqda. Madaniy diplomatiya bugungi kunda davlatlararo aloqalarni yanada mustahkamlashga hissasini qo‘shib kelmoqda. Qanday deysizmi? Yangi media tarmoqlari orqali diplomatik munosabatlar qayta tiklanmoqda.

Bugungi kunda madaniy diplomatiya yangi medianing shunchaki bir qismi emas, balki uning g‘oyaviy mazmunini boyituvchi va kontent sifatini belgilovchi

harakatlantiruvchi kuchga aylandi. An'anaviy madaniy diplomatiya uzoq muddatli tayyorgarlik, yirik moliyaviy resurslar hamda madaniy elchixonalar yoki markazlar faoliyatiga tayanar edi. Yangi media esa madaniy axborotni uzatishdagi makon va vaqt chegaralarini yo'qotdi [2]. Madaniy diplomatiyaning yangi mediaga ta'siri, eng avvalo, milliy kontentning raqamli formaga moslashuvida ko'rinadi. Milliy taomlar, xalq hunarmandchiligi, me'moriy meros va urf-odatlar ijtimoiy tarmoqlar algoritmlariga moslashtirilgan kontent shakliga aylanmoqda. Madaniy diplomatiya orqali turli xalqlarning urf-odatlaridan tortib yashash tarziga o'rganish imkoniyatiga egamiz.

Yaqin kunlar muhtaram Prezidentimizning Turkiy davlatlar Sammitidagi ishtiroki Markaziy Osiyo davlatlari bilan bo'lgan aloqani yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Tobora, bizning millatimizga ham qiziqishning ortishi, turistlar oqimining ko'payishi, jahon miqyosidagi o'rnimizga egaligimizning negizida madaniy va ta'lim diplomatiyasi turadi.

Bugungi kunda Turkiya va O'zbekiston munosabatlarida madaniy diplomatiya o'zining eng jadal va samarali bosqichini boshidan kechirmoqda. Ikki xalqning umumiy tili, dini, tarixi va madaniy ildizlari ushbu strategik sheriklikning mustahkam poydevori hisoblanadi. Bu jarayonda har ikki mamlakat diplomatiyasi faqatgina rasmiy uchrashuvlar bilan cheklanib qolmay, xalqlar o'rtasidagi ma'naviy va hissiy yaqinlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Turkiy Davlatlar Tashkiloti hamda TURKSOY kabi xalqaro platformalar doirasida o'tkazilayotgan madaniyat kunlari, hunarmandchilik ko'rgazmalari hamda ilmiy forumlar bu aloqalarga institutsional tus berayotgan bo'lsa, gastro-diplomatiya — ya'ni o'zbek va turk milliy oshxonalarining o'zaro targ'ib qilinishi insonlar o'rtasidagi do'stona rishtalarni yanada samimiy qilmoqda. Ushbu qizg'in madaniy muloqotni keng jamoatchilikka yetkazish va universal "yumshoq kuch" (Soft Power)ga aylantirishda esa medianing roli beqiyosdir. Kino va seriallar diplomatiyasi orqali har ikki xalq bir-birining turmush tarzi, qadriyatlari va tarixi bilan yaqindan tanishmoqda; masalan, "Mendirman Jaloliddin" kabi kross-madaniy

media loyihalari ikki mamlakat o'rtasidagi hissiy bog'liqlikni tubdan kuchaytirdi. Shuningdek, raqamli media, ijtimoiy tarmoqlar va travel-bloggerlarning faoliyati sababli Samarqand, Buxoro, Istanbul yoki Kapadokiyaning turistik hamda madaniy salohiyati millionlab yoshlar auditoriyasiga soniyalar ichida yetib bormoqda. Diplomatik vakilxonalar va media tuzilmalarining har ikki tilda berib borayotgan tezkor va xolis axborotlari esa o'zaro ishonchni mustahkamlamoqda. Xulosa qilib aytganda, media Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy diplomatiyani shunchaki rasmiy doiralar muloqotidan chiqarib, uni har bir fuqaro uchun ochiq, jonli va doimiy muloqot maydoniga aylantirishda asosiy ko'prik vazifasini bajarmoqda. Shuningdek, har ikki mamlakat OTMlari o'rtasida talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvi dasturlari (masalan, "Mavlono" almashinuv dasturi hamda Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasidagi Orxun proyeksi) faol ishlamoqda. Turkiya hukumatining "Türkiye Bursları" dasturi orqali har yili yuzlab o'zbekistonlik yoshlar Turkiyaning eng nufuzli universitetlarida bepul ta'lim olib, ikki mamlakat o'rtasidagi "ma'rifiy elchilar"ga aylanmoqda.

Shuning bilan birga, O'zbekistondagi Yunus Emre Instituti (Yunus Emre Enstitüsü) kabi madaniyat va ta'lim markazlari orqali turk tilini o'rgatish, turk tili va madaniyati markazlarini ochish ishlari olib borilmoqda, O'zbekiston vakillari esa Turkiyada o'zbek tili va adabiyotini targ'ib qilish jarayonlarida faol qatnashmoqda. Maktab ta'limi sohasida ham umumiy turk tarixi, adabiyoti va geografiyasiga oid darsliklarni birgalikda yaratish va ta'lim standartlarini uyg'unlashtirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilayotgani yosh avlodda mushtarak tarixiy va madaniy shaxsiyatni shakllantirmoqda.

Ushbu amaliy ishlar diplomatiyaga bevosita ulkan hissa qo'shmoqda. Ta'lim orqali shakllangan akademik va madaniy rishtalar shunchaki nazariy bilim berib qolmay, har ikki xalq yoshlari o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va tushunish muhitini yaratadi. Natijada, ushbu bitiruvchilar va tadqiqotchilar kelajakda davlat boshqaruvi, diplomatiya, biznes va media sohalarida o'zaro manfaatli

munosabatlarni davom ettiruvchi eng ishonchli hamkorlar hamda "yumshoq kuch" (Soft Power)ning tirik tashuvchilariga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, madaniy diplomatiya va raqamli media zamonaviy xalqaro munosabatlarda mamlakatning "yumshoq kuchi" va xalqaro nufuzini belgilovchi eng qudratli strategik omillardan biridir. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi munosabatlar misolida ko'rib chiqilganidek, mushtarak madaniy ildizlar, gastro-diplomatiya, ta'lim hamkorligi va qo'shma media loyihalar ikki xalq o'rtasidagi do'stlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Biroq madaniy diplomatiya va yangi media integratsiyasini faqat bir mintaqaga yoki bir davlat bilan cheklab qo'ymasdan, uni global miqyosda Yevropa, Osiyo-Tinch okeani, Yaqin Sharq va Amerika davlatlari bilan ham tizimli ravishda rivojlantirish davr taqozosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Manor, I. (2019). *The Digitalization of Public Diplomacy*. Palgrave Macmillan.
2. Cull, N. J. (2019). *Public Diplomacy: Foundations for Global Engagement in the Digital Age*. Polity Press.